



NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

A.A.Abdunazarov

Buyruq loyihasini tayyorlash va tasdiqlashga kiritish uchun

Muddat: 2025-yil 21-iyun

№20-08/94
18 Iyun 2025

B.E.Xusanov
Ректор





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari uchun yagona
yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini
tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoniga muvofiq:

a) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti negizida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali – Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti sifatida O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti – Samarqand davlat pedagogika instituti sifatida tashkil etilishi belgilanganligi;

b) pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan 12 ta oliy ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda – pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi keyingi o‘rinlarda – vazirlik) tizimiga o‘tkazilganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Kuzatuv kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kuzatuv kengashi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash konsepsiyasi 2-ilovaga muvofiq;

Pedagogika ta’lim sohasining ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirish reja-jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti (E.Karimova) o‘n kun muddatda:

Kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilishini tashkil etish choralarini ko‘rsin;

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining nizomi, tashkiliy tuzilmasi, shtat birliklari sonini tasdiqlash masalasini Kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilishi muhokamasiga kiritсин.

4. Vazirlik tasarrufidagi pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari:

o'n kun muddatda oliy ta'lim tashkilotining nizomi va tashkiliy tuzilmasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin;

bir oy muddatda oliy ta'lim tashkilotining guvohnomalarini qayta rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish choralari ko'rsin.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash konsepsiyasi hamda Pedagogika ta'lim sohasining ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirishning reja-jadvalida yuklatilgan vazifalarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlasin.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli boshqarma va bo'limlar, vazirlik tasarrufidagi pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil "4"-iyun
178-son